

MAKTAB O'QUVCHILARIGA ADABIYOTNI O'RGATISHDA INTEGRATSIYANING AHAMIYATI

Boboyeva Nafosat Tulqin qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti
Toshniyozova Ra'no Qurbonovna,
ilmiy rahbar, falsafa fanlari doktori (PhD) dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab o'quvchilariga adabiyot fanini o'qitishda integration yondashuvning nazariy va amaliy asoslarini tahlil etish, integratsion o'qitish orqali dars jarayonining samaradorligini oshirish, fanga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish hamda o'quvchilarning ko'p yo'nalishli bilim olishlariga zamin yaratish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Integratsion o'qitish, badiiy matn, integratsiya, tarix va adabiyot, san'at va adabiyot, psixologiya va adabiyot, audiokitoblar, o'zaro bog'liqlik, badiiy tafakkurni rivojlantirish.

ÖKUL ÖĞRENCILERINE EDEBIYAT ÖĞRETİMİNDE ENTEGRASYONUN ÖNEMİ

Boboyeva Nafosat Tulqin qizi,
Özbek- Finlandiya Pedagoji Enstitüsün'de yüksek lisans öğrencisi
Toshniyozova Ra'no Qurbonovna,
bilimsel danışman, falsefe doktoru (phd), doçent

Özet. Bu makalede okul öğrencilerine edebiyat dersini öğretmede bütünleştirici yaklaşımın teorik ve pratik temelleri analiz edelmektedir. Entegratif öğretimin ders verimliliğini artırma, dersi olan ilgiyi güçlendirme ve öğrencilerin çok yönlü bilgi edinmelerine zemin hazırlama konularındaki rolü ele alınmaktadır.

Anahtar kelimeler. Bütünleştirici öğretim, edebi metin, entegrasyon, tarih ve edebiyat, sanat ve edebiyat, sesli kitaplar, karşılıklı bağlantı, edebi düşüncenin geliştirilmesi.

ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕГРАЦИИ В ОБУЧЕНИИ ЛИТЕРАТУРЕ ШКОЛЬНИКОВ

Бобоева Нафосат Тулкин кизи,
магистрантка Узбекско-Финского педагогического института
Тошниязова Раъно Курбановна,
научный руководитель, кандидат философских наук, доцент

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические основы интегративного подхода в преподавании уроков литературы школьникам. Рассматривается как интегративное обучение способствует повышению эффективности урока, уселению интереса к предмету и созданию условий для получения многопрофильных знаний учащимся.

Ключевые слова. Интегративное обучение, художественный текст, интеграция, история и литература, психология и литература, аудиокниги, взаимосвязь, развитие художественного мышления.

THE IMPORTANCE OF INTEGRATION IN TEACHING LITERATURE TO SCHOOL STUDENTS

Boboyeva Nafosat Tulqin qizi,
master's student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute
Toshniyozova Ra'no Kurbonovna,

scientific advisor, PhD in philosophy, associate professor

Abstract. *This article analyzes the theoretical and practical foundations of the integrative approach in teaching literature to school students. It discusses how integrative teaching can increase lesson effectiveness, enhance student's interest in the subject and create opportunities for acquiring interdisciplinary knowledge.*

Keywords. *Integrative teaching, literary text, integration, history and literature, art and literature, audiobooks, interconnection, development of literary thinking.*

Zamonaviy ta'lim jarayonida har bir fanni integratsiya asosida o'rganish kundan kunga rivojlanmoqda. Ma'lum bir fanni o'zaro boshqa fanlar bilan aloqada o'rganish esa samarli natija beradi, albatta. Xususan, adabiyot fanini o'qitishda integratsiya o'quvchilarning badiiy asarlarni chuqur tushinishlari, tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularning ijodiy va tanqidiy tafakkurini shakllantirishga yordam beradi.

Dastavval integratsiya atama va uslubiy nuqtai nazaridan nima ekanligini ko'rib chiqaylik.

Integratsiya lotincha *integration* – tiklash, to'ldirish, *integer* – butun so'zidan kelib chiqqan. Bu borada ikki xil tushunchaga egamiz :

1. Tizim, oraganizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Integrativ yondashish turli darajadagi tizimli aloqalarning obyektiv yaxlitligini aks ettiradi (tabiat – jamiyat – inson). Integratsiya ilgari bo'lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasini oshirishga olib keladi. Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o'rganish obyektining yaxlitligi tartibga solinadi. Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta'limida qo'llash mumkin? Zamonaviy didaktik va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilari o'qitish, rivojlanishi va tarbiyashning muvaffaqiyatlari ularda dunyo birligi haqida tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushinishlari, tabiatshunoslik kursida fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog'liq. Ta'limdagi integratsiya o'quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko'rib chiqiladi [2, 15].

Adabiyot – bu so'z san'ati. Shu bilan birga jamiyat hayotini aks ettiruvchi muhim fanlardan biridir. Uni boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish zarur va ahamiyatli. Bundan tashqari adabiyot fanini ko'plab tarmoqlar bilan bog'lab o'rganish mumkin. Bu esa fanni ancha keng o'rganish imkoniyatini beradi. Yangi adabiyot darsliklari ham badiiy matnlarni qator sohalar bilan bog'lab o'rgatishga qaratilgan va bu fanni o'rganishda samarali ekanligini ko'rishimiz mumkin. Adabiyotni qator fanlar: adabiyot tarixi, falsafa, san'at, musiqa, tabiiy fanlar, texnologiya va innovatsiya kabilar bilan integratsiyalash imkoniyati mavjud. Uni bu fanlar bilan aloqada o'rganganda o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi. Bu esa ularni badiiy tafakkur qilishga undaydi va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Badiiy adabiyotni o'qish, unga tanqidiy munosabat bildirish, adabiyotga shu tomondan yondashish bu – dunyoga teran nazar tashlash demak.

Badiiy tafakkurni rivojlantirish – badiiy tafakkur badiiy kitob o'qiganda rivojlanadi, ammo faqatgina o'qish, uning tub mohiyatini tushinmaslik, bu – o'qimaslik. Shu sababdan adabiyot tarix, falsafa, san'at, musiqa kabi fanlar bilan integratsiyalashganda o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi. Asarni tushinish darajasi ortadi.

O'zaro bog'liqlikni tushinish – integratsiyalab o'qitishda o'zaro bog'liqlik-ni tushinish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, badiiy matnni tarix va geografiya fanlari bilan bog'lab o'qitish orqali adabiy asarlarning yaratilish sharoitini, voqealar fonini aniq tushinish mumkin. Bu o'quvchiga matnni ancha keng ko'lamda o'rganish imkonini beradi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish – o'quvchi ijodiy fikrlashni boshlaganda u adabiyotni tushinishni boshlaydi. Adabiyot va texnologiya, tasviriy san'at, kino san'ati bilan integratsiya qilinsa, o'quvchilar ijodiy yondashuvga o'rganadilar.

Adabiyot ta'limida integratsiyani samarali qo'llash uchun turli pedagogik metodlardan foydalanish mumkin:

Tarix bilan integratsiya – muayyan davrda yozilgan badiiy asarlar o'sha davr voqeaalri bilan bog'lab o'rganiladi. Masalan, Cho'lponing "Kecha va kunduz" romanini jadidchilik harakati tarixi bilan bog'lab o'rganish. Tarixiy asarlarni o'sha davr ijtimoiy muhiti bilan bog'lab o'rganish bu asarni tushinish, tahlil qilish, unga tanqidiy yondashishda muhim. Shu sababdan yangi nashr qilingan adabiyot darsliklarida berilgan tarixiy asarlarni o'rganishda bevosita u tarix bilan bog'lab berilgan. Masalan, 6-sinf adabiyot darsligida berilgan Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasini u bo'lib o'tayotgan davr muhiti bilan bog'lay olsak, hikoyaning asl maqsadini tushinamiz. Yoki Navoiy, Abay, Avaz O'tar kabi yozuvchilar yashab ijod qilgan tarixiy muhitdan bexabar bo'lsak, ularning yozgan g'azallarni tahlil qilishga qiyinalib qolamiz. Bu jarayonda tarixni bilish va bu orqali asarni o'quvchilarga tushintirish ahamiyatli.

San'at va musiqa bilan bog'lash – asar asosida chizilgan suratlar yoki yaratilgan musiqalar orqali uni yanada teran tushinish. Bunda o'quvchining estetik didi rivojlantiriladi. Shu bilan birga tushinilishi qiyin bo'lgan ba'zi g'azallarni musiqasini tinglash bugungi davr o'quvchilari uchun yangilik. Ular g'azalni o'zlari o'qib o'rganishdan ko'ra musiqasini tinglashni maqul ko'rishadi va bu ular uchun maroqli. Masalan, 9- sinf adabiyot darsligida berilgan Omon Matjonning Alisher Navoiy g'azaliga bog'lagan "Avvalgilarga o'xshamas" muxammasini o'quvchilar o'qib o'rganishdan ko'ra uning Sherali Jo'rayev tomonidan kuylangan musiqasini tinglashgani yoqtirishdi. Va keyingi darslarda berilgan adiblarning ham she'rlari asosida qo'shiq tinglashni xohlashlarini aytishdi.

Shuningdek, asarning mohiyatini ochib berish uchun rassomlar tomonidan chizilgan suratlar ham uning chuqurroq angalanishiga yordam beradi. Ba'zi o'quvchilar esa o'qigan asarlari asosida surat chizish qobiliyatiga ega bo'lishadi. Ular asardan olgan ta'surotlarini so'zlab berishdan ko'ra tasvirlash orqali kechinmalarini namoyon qilishni yoqtirishadi. Bunday o'quvchilarning qobiliyatiga qarab munosabatda bo'lish ularning kelajagi uchun poydevor bo'lishi mumkin. Hattoki, biror kitob sotib olayotganimizda ham uning muqovasiga e'tibor qaratamiz. Yuzidagi surat diqqatimizni tortsa, uni o'qishga qiziqib qolamiz. Shuning o'zi ham san'atning qay darajada adabiyot bilan bog'liqligini ko'rsatib beradi.

Falsafa bilan bog'liqlik – adabiy asarlarni axloqiy va falsafiy g'oyalar bilan bog'lab o'rganish. Bu yo'sinda badiiy asarni o'rganish o'quvchini falsafiy va tanqidiy fikrlashga undaydi. Adabiyot va falsafa inson tafakkurining ikki muhim yo'nalishi bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi va insoniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Adabiyot badiiy obrazlar orqali hayotni aks ettirsa, falsafa inson ongi, borliq va axloqiy qadriyatlarni mantiqiy tahlil qilishga harakat qiladi. Adabiy asarlar ko'pincha inson hayotining mazmuni, adolat va adolatsizlik, ezgulik va yovuzlik, erkinlik va taqdir kabi falsafiy savollarga javob izlaydi. Misol uchun, Chexovning "Garov" hikoyasida inson taqdiri, erki, yashashning mohiyati haqida fikr yuritiladi. Agar hikoyaga yuzaki qaralsa, unda bor yo'g'i ikki insonning garov o'ynashi haqida gap borayotgandek tuyiladi. Ammo unga falsafiy yondashiladigan bo'lsa asl hayotning mohiyati, yashashdan maqsad kabi muammolar ochib beriladi. Adabiy asarlar insonning falsafiy kechinmalarini estetik shaklda ifodalaydi. Alisher Navoiyning g'azallarida tasavvuf falsafasi aks etgan bo'lsa, Tolstoy romanlarida axloqiy falsafa, ma'naviy mukammallikka intilish mavzulari ustuvorlik qiladi. Bular o'rtasidagi aloqa asosida asarni tahlil qilish insoniyat tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchi esa shunchaki asar o'qimaydi, balki avval nazariy tushunchalarni yaratib keyin ularni badiiy obrazlar orqali jonlantiradi.

Texnologiya va innovatsiya bilan bog'lash – zamonaviy texnologiyalar ko'magida adabiyotni o'rgatish. Badiiy matnni texnologiya va innovatsiyalar bilan o'rgatish o'quvchilarga adabiyotni zamon talabalari asosida o'rgatishga, ularning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va o'zlashtirish samaradorligini kuchaytirishga yordam beradi. Bu yondashuv orqali an'anaviy adabiyot darslari yangi mazmun kasb etadi. O'quvchilar texnologiyalar yordamida badiiy matnni ko'rgazmali, interaktiv, tinglab anglash va amaliy usullar orqali o'rganishlari mumkin. Ular bir

nechta sezgilar orqali o'rganishsa o'zlashtirish samaradorligi oshadi. Masalan, audikitoblar o'quvchini vaqtini tejaydi. U bilan o'quvchi biror yumush qilayotganda ham badiiy matnlarni tinglashi mumkin, ayniqsa eshitish orqali yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar uchun foydali. Bundan tashqari, asarning videodramatizatsiyasidan foydalanish orqali o'quvchilarning qiziqishni yanda oshirish mumkin. Internet manbaalaridan foydalanish, o'quvchilarga o'qigan asarlari asosida videoroliklar tayyorlash vazifasini berish yoki lirik asarlarni audiomatnlarini tayyorlash haqida aytish orqali darslarni zamonaviy texnologiyalar bilan bog'lash ularning ijodkorligini oshirishga yoradam beradi. Badiiy matnni texnologiya va innovatsiyalar bilan bog'lab o'qitish – bu faqat vositalarni almashtirish emas, balki ta'lim jarayonini tubdan yangikashdir. O'qituvchilar zamonaviy texnologik vositalardan foydalanib o'quvchilarni adabiyotga yaqinlashtira olsalar bu bilan ham ta'lim, ham tarbiya bergan bo'ladilar.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnni boshqa sohalar bilan integratsiyalash asosida o'rgatish zamonaviy ta'limning muhim talablaridan biridir. Bu usul o'quvchilarning adabiy bilimlarini chuqurlashtiradi va ularning tafakkur darajasini oshiradi. Tafakkur qilishni, biror voqea ustida mulohaza yuritishni bilgan o'quvchi esa muammolarga ijobiy yechim topadi, hayotda o'z o'rnini topishga qiynalmaydi. Bunday yoshlar esa jamiyatga nafi tegadigan insonlar bo'lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyot nazariyasi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi. 2 tomlik. – Toshkent: Fan. 1979. – 43b.
2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ch ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. O'quv qo'lanma. – T.: «Ilm ziyo», 2009. – 192 b.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R.. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Shafolat nur fayz, 2020. –31 b.
4. Tojiyev A. Adabiyot darslarida suhbat. – T.: O'qituvchi. 1997. – 203b.